

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA HAR XIL JANRDAGI ASARLARNI O'QITISH METODIKASINING O'ZIGA XOS USULLARI

**Isroilova Dilrabo**

*Qo'qon universiteti Boshlang'ich ta'limga 'nalishi*

*1-21 guruh talabasi,*

**Sanginova Gulnoza Baxodirovna**

*Ta'limga kafedrasiga o'qituvchisi*

*xusamr@mail.ru tel. 911517001*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga har xil janrdagi badiiy asarlarni o'qitish metodikasi yoritiladi. Turli janrlardagi asarlar bilan ishlashda qo'llaniladigan samarali usullar, o'quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirish, ularning matnni tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish masalalari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich sinf, o'qitish metodikasi, asar, janr, o'quv jarayoni, pedagogika, didaktika.

Boshlang'ich sinflarda adabiy asarlarni o'qitish metodikasi ta'limga jarayonining muhim jihatlaridan biridir. Ta'limga samarali tashkil etish uchun o'qituvchi o'quvchilarga nafaqat bilimlar, balki dunyoqarash, axloqiy qadriyatlar va fikrlash qobiliyatlarini ham o'rgatishi kerak. Adabiyotlar, ayniqsa, badiiy va ilmiy asarlar o'quvchilarga har tomonlama rivojlanish imkoniyatlarini taqdim etadi. Ularning o'qish jarayonidagi rolini to'g'ri tushunish va o'quvchilarning yoshiga mos asarlarni tanlash, o'qitish metodikasining muhim jihatidir.

Boshlang'ich sinflarda adabiy asarlarni o'qitishda turli janrlarning ahamiyati juda katta. Har bir janr o'quvchilarga o'ziga xos fikr yuritish va tasavvur qilish usullarini o'rgatadi. Masalan, badiiy asarlarni o'qish nafaqat o'quvchining hissiy dunyosini boyitadi, balki uning tasavvurini kengaytiradi. Boshqa tomonidan, ilmiy asarlar o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga, faktlarni tahlil qilishga va aniq xulosalar chiqarishga o'rgatadi. Publitsistik va masalaviy asarlarni o'qish esa o'quvchilarning jamoat fikrini, ijtimoiy masalalarni tushunish va ularga nisbatan o'z fikrini bildirish qobiliyatini rivojlanadiradi.

Bugungi kunda boshlang'ich sinfda o'qitishning samarali metodikasi faqatgina kitob o'qishga emas, balki o'quvchilarning didaktik faoliyatini tashkil etishga ham qaratilgan. O'quvchilarga har xil janrdagi asarlarni tanishtirishda o'qituvchi pedagogik metodlardan foydalanishi zarur. O'qituvchilarning didaktik yondashuvlari va metodik uslublari o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini belgilaydi. Pedagogik amaliyotda



## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

interaktiv usullar, guruhli ishlash, tahlil va muhokama metodlari samarali qo'llanilsa, o'quvchilarining qiziqishi ortadi va bilimlarni yanada chuqurroq o'zlashtiradi.

Shu sababli, ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda turli janrdagi asarlarni o'qitish metodikasining o'ziga xos usullari, pedagogik yondashuvlar, metodologik yondoshuvlarning samaradorligi va o'quvchilarining intellektual rivojlanishiga ta'sir etuvchi faktorlar tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi – boshlang'ich sinfda adabiy asarlarni o'qitishda zamonaviy metodikalarni o'rganish va ular asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir.

1. Proyekt metod (Guruqli ish va yaratuvchanlik asosida o'qitish). Bu metod o'quvchilarga asarni chuqurroq tushunishga va o'z fikrlarini yaratishga imkon beradi. O'quvchilarga ma'lum bir asar yoki janrni tanlash va uni guruhsda tahlil qilish vazifasi beriladi. Guruhlar asarni tahlil qilib, o'z fikrlarini va hissiyotlarini bir-biriga taqdim etadilar. Keyinchalik, ular asar asosida proyekt yaratadilar — masalan, qisqacha hikoya yozish, asarni sahnalashtirish, yoki asosiy obrazni tasvirlash. Bu metod o'quvchilarining ijodkorlik va jamoada ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Proyekt metodining afzalliklari:

- O'quvchilarining o'z fikrlarini erkin ifodalashiga imkon yaratadi.
- Jamoaviy ish orqali o'quvchilarda hamkorlik va mas'uliyatni rivojlantiradi.
- Tanlangan asar bo'yicha chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

2. Rol o'ynash metodikasi (Dramatizatsiya). Bu metod o'quvchilarga asar yoki hikoya personajlarining rolini o'ynash orqali o'quv jarayonini jlonlantiradi. O'qituvchi o'quvchilarga asarning muhim qismlaridan birini tanlashni va o'sha voqealarni yoki suhbatlarni sahnalashtirishni taklif qiladi. O'quvchilar turli rollarga kirib, asardagi voqealarni yoki holatlarni jonli tarzda namoyish etishadi. Bu metod o'quvchilarga:

asarni yaxshiroq tushunish imkoniyatini beradi, chunki ular o'zlarini personajlar sifatida his qiladilar; nutq va so'zlash qobiliyatlarini rivojlantiradi; ijodiy fikrlashni va emotsional ongni shakllantiradi, chunki o'quvchilar personajlarning hissiyotlarini va fikrlarini o'rghanadilar; rol o'ynash metodikasi o'quvchilarda empatiya (boshqa odamning holatini tushunish) va yaratish qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda har xil janrdagi asarlarni o'qitishda didaktik va metodik yondoshuvlarni birlashtirish o'quvchilarining til va nutq rivojlanishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilar o'zlarini yanada erkin va ishonchli his qilishadi, ijodiy fikrlash qobiliyatları rivojlanadi. Asarlarni o'qitishda individual va guruhli faoliyatlar, muhokama, va interaktiv o'yinlar o'quvchilarining kitobga bo'lgan qiziqishini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

4-sinf o'quvchilarida Xudoyberdi To'xtaboyevning "Mening yurtim" asari asosida Proyekt metodi va Rol o'ynash metodikasini qo'llash o'quvchilarining nafaqat asarni tushunish darajasini, balki ularning ijodiy qobiliyatlarini, nutq rivojlanishini va emotsional ongini rivojlantirishda samarali bo'ldi. O'quvchilar o'qigan asarlari orqali

## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

o‘z fikrlarini erkin ifodalashdi, turli personajlar orqali yangi fikrlarni o‘rganishdi va guruhda ishlash orqali o‘zaro hamkorlikni rivojlantirishdi.

Bu metodlar o‘quvchilarda hayotiy qadriyatlarni tushunishga, shaxsiy tajriba va bilimlarini amaliyotda qo‘llashga yordam berdi.

- Proyekt metodini qo‘llagan o‘quvchilarning 85% ijodiy fikrlashni rivojlantirgan. Rol o‘ynash metodikasida bu ko‘rsatkich 75%ni tashkil etdi.
- Rol o‘ynash metodikasi nutq rivojiga juda samarali ta’sir ko‘rsatdi, 85% o‘quvchilarda nutq rivojlandi. Proyekt metodda bu ko‘rsatkich 70%ni tashkil etdi.
- Rol o‘ynash metodikasi o‘quvchilarda emotsiyonal tushunchani eng yuqori darajada rivojlantirgan (90%), bu metodda o‘quvchilarning sezgilarini ifodalashda yuqori natijalarga erishildi. Proyekt metodda bu ko‘rsatkich 60%ni tashkil etdi.
- Proyekt metod guruhda ishlashda 90% samaradorlikni ko‘rsatdi, bu metod o‘quvchilarni bir-biriga yaqinlashtirgan va jamoaviy ishni samarali tashkil etgan. Rol o‘ynash metodikasida bu ko‘rsatkich 65%ni tashkil etdi, chunki o‘quvchilar ko‘proq individual ishlar bilan shug‘ullanishdi.

Yuqoridagi metodlar va tajribalardan foydalanib, har bir tajriba-sinovi o‘quvchilarda muvaffaqiyatli tarzda o‘tkazildi. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilarga mavzularni oddiydan murakkabga qarab dars o‘tish, mavzu asosida turli xildagi metodlardan foydalanish o‘quvchilarning ijodiy fikrlash, nutqining rivojlanishi hamda og‘zaki va yozma kompitensiyalarini rivojlanishiga asos bo‘ladi.

O‘quvchilarda kitobga qiziqishni oshirishda turli janrdagi adabiy asarlarning ahamiyati katta. Klassik va zamonaviy asarlar, she’rlar, hikoyalalar, ertaklar va dramalar o‘quvchilarning tasavvurini kengaytiradi va ularni ijodiy fikrlashga rag‘batlantiradi. O‘qituvchilar o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olib, metodologiyaning turli usullarini qo‘llashlari kerak. Masalan, ertak va hikoyalarda voqealarning izchil rivojlanishi va obrazlar orqali adabiy tajriba olishni ta’minlash mumkin. Bundan tashqari, she’rlar o‘quvchilarda ritm va til go‘zalligiga bo‘lgan qiziqishni oshiradi, dramatik asarlar esa ularning emotsiyonal rivojlanishiga yordam beradi.

O‘qituvchilar o‘quv jarayonini interaktiv, o‘qish faoliyatini qiziqarli va mazmunli qilish uchun o‘z metodologiyasini doimiy ravishda takomillashtirishlari lozim. Adabiyot o‘qitishda kreativ yondoshuvlar, masalan, rolli o‘yinlar, dramatizatsiyalar va guruhli ishlar samarali natijalar beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o‘qitish metodikasi (An’anaviylikdan zamonaviylikka). – Toshkent, 2020. – 120 b.
2. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022. – 120 b.

**MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC  
SOLUTIONS**



3. Shodmonov, A. Adabiyot o'qitish metodikasida innovatsion yondoshuvlar. Samarqand: SamDU nashriyoti. 2018.
4. Sanginova, G. (2024). Bolalarda mehnat tarbiyasini shakllantirishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish. University Research Base, 116-119.
5. Gulnoza, S. (2024). Maktabgacha ta'limda mehnat tarbiyasi: zamonaviy talablar va istiqbollar. Qo 'qon universiteti xabarnomasi, 13, 215-219.
6. Sanginova, G. B. (2024). Improving organization in the first environmental education of preschool children. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(4), 440-447.
7. Sanginova, G. B. (2024). Steam ta'limini joriy qilishning pedagogik asoslari. Inter education & global study, (10 (1)), 103-108.
8. Tojimuxammadovna, D. S., & Qaxramonovich, M. M. (2024). Tashqi va ichki motivatsiyalarning yoshga bog'liqligi. University Research Base, 168-171.
9. Davlatova, S. T. qizi Abdullayeva, FS (2023). Bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga oid ota-onalarning qarashlari. Educational Research in Universal Sciences, 2(16), 819-823.

